

**“ZARBULMASAL”DA TIMSOLLAR TALQINI**

**Shomurodova Lola Bobir qizi**

Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi.

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15605871>**

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada "Zarbulmasal" ning yozilish tarixi, undagi obrazlar va ularning g'oyaviy badiiy xususiyatlari tog'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** “Zarbulmasal”, asardagi obrazlar, Kulonkir, Gunashbonu, Boyo'g'li, Yappaloqqush.

Gulxaniy ijodiy faoliyatidagi eng muhum fazilat shundan iboratki, u o'z davrining folklorshunosi sifatida o'zbek xalqining beqiyos donishmandligini ifoda etgan masallar, maqollarni to'plab, mashhur "Zarbulmasal" asari yaratdi. Gulxaniy asarning kirish qismida uning yozilish sababi ustida to'xtalib, xon saroyidagi she'riy majlislarning birida masal (maqol, matal, hikmat)larning badiiy ijoddagi o'rni haqida gap ketganligini qayd etadi. Xonning nazari Gulxaniyga tushib, uni qoshiga chaqiradi va ...bu zarbulmasallarni necha hikoyatlar orasida aql-u donishing yetishicha tartib ver"-deb buyiradi. Gulxaniy darrov javob beradi: "Ey shohi jahonpanoh, tojikning bir masali bordirki, az ko'za hamon tarovadki, dar o'st (Ko'zada bori to'kiladi) "Alar (ya'ni xon) aytdilarki, "O'zbekning bir maqoli bordirki,"Eshakiga yarosha tushog'i". Bu suhbatdan so'ng Gulxaniy "amirning amirlarini vojib qilib, zarbulmasal yo'lida sobit qadam bo'ldi va Yappaloqqush va Boyqushning qudaliklari orasinda to'rt yuz zarbulmasalli "avommunos" ni bayon qiladi. Asarning kompozitsiyasi ham, syujeti ham, tili ham anchagina murakkab bo'lishiga qaramay, tushunilishi jihatidan sodda va maroqlidir. Bunga maqol, matal, masal va hikmatlardan o'rinni foydalanish evaziga erishilgan.

“Zarbulmasal” — hayvonlar haqidagi qiziqarli voqealarga boy asar. U, aslida, odamlar haqidagi asardir. Adabiyotimiz tarixida „Zarbulmasal” nomi bilan tarqalgan asarlar juda ko'p bo'lgan. U, avvalo, bir tildagi masallarning oddiy to'plamini anglatgan. Shuningdek, bir tildagi masallarning boshqa tilga qilingan tarjimalari ham „zarbulmasal” deb nomlangan. Biror masalga tayanib pandnoma yo'nalishida bitilgan risola ham „zarbulmasal” atalgan. Gulxaniyning „Zarbulmasal”i esa tamomila original badiiy asar bo'lib, dunyo adabiyotida o'xshashi yo'q hodisadir. Bu janrdagi asarlarda imoishora, kinoya asosiy tasvir usuli hisoblanadi. Ijodkor badiiy maqsadini odamlar taqdiri tasviri orqali emas, balki qushlar, jonivorlar vositasida ifodalaydiki, bu asarning ta'sir kuchini oshiradi.

„Zarbulmasal”dagi asosiy qahramonlardan bo’lmish Boyqushning qanday parranda ekanligi va uning faqat vayronalarni makon tutishi ma’lum. Asarda esa, uning makoni shunday hayrat va muhabbat bilan tasvirlanadiki, beixtiyor o’quvchining kulgisi keladi.

Ma’lumki, boyqush — tungi jonzot. Uning qizi Gunashbonu deb atalgan. Bu — Quyoshxon degani. Boyqushdan quyosh tug’ilishi mumkinligi tasavvurga sig’adimi? Buning ustiga, bu qiz shu qadar chiroyliki, olam quyoshi, ya’ni kun uning yuziga qaray olmaydi:

Orazidin shams-u qamardir xijil,  
So’zlaridin shahd-u shakar munfail.  
Hosili umri edi ul boyning,  
Oti Gunashbonu o’shal oyning.

Boyqushning kibri, qattiqligi, boshqalarni mensimasligi, o’zgalarning fikri bilan hisoblashmasligi asar matnida juda qiziqarli yo’sinda ko’rsatilgan. Ko’proq qalin undirish uchun qizining baxtidan kechishga ham tayyorligi uning shaxsiga xos xususiyatlarni yorqin aks ettiradi.

Asarda Boyqushga „Anda Ko’rqush ko’rdiki, xasis-u haris, agar ming chordevordin bjr chordevor kam bo’lsa, o’tuz tishini bir-biridin sindirur”, — degan ta’rif beriladi. Asosiy qahramonlardan biriga Ko’rqush nazari bilan berilgan baho ko’p jihatdan muallifning ham qarashini ifoda etadi. Boyqushning: „Farosat oyog’i oqsoq, tevadek yegani sho’ra va yantoq, ilgari o’tgan so’zning birini ming qilib so’zlarga toq, oyog’idin osilgan so’tqoq qushga o’xshash ahmoq emasmen”, — degani yoki „Ko’pga kengash, o’z bilganining qil”, — qabilidagi so’zlari bu obrazning shunchaki yomonlik timsoli emas, balki vaziyat taqozosni bilan mohiyatini o’zgartirib turishi mumkin bo’lgan murakkab tabiatli kishi timsoli ekanligini teranroq his etishga olib keladi.

Uning bu qarashlarida xalq donoligi, turmush chigalliklariga amaliyotchi nigohi bilan qaraydigan kishining bilgichligi namoyon bo’ladi. Asarda tasvir qamroviga olingan har bir timsolga xos xususiyat turli yo’sinlarda aks etgan. Bir qush tabiatiga xos iithatlarni aks ettirishda qo’llanilgan usuldan boshqasining fe’lini ko’rsatishda foydalanimagan. Agar Boyqush, Yapaloqqush, Ko’rqush, Kordon, Turumtoy, Kulonkir singari qushlarga xos sifatlar ularning o’zaro muomala-munosabatlari asnosida ko’rsatilgan bo’lsa, bir qator qushlarga tegishli jihatlar ularga boshqalar bergen tavsiflar asosida ochilgan. Jumladan, Yapaloqqushning do’sti — Sho’ranulga bergen ta’rifi qarg’a tabiatiga xos xususiyatlarni yorqin namoyon etishidan tashqari, bu ta’rifda o’sha davrdagi ayrim odamlarga tegishli bo’lgan sifatlar ham aks etganllgi „Zarbulmasal”ning umumlashma kuchini ko’rsatadi. Asarda qarg’a Sho’ranul yashaydigan yurt qushlarining podshohi Malik Shohinning pahlavoni Kulonkirning uylanishiga saxiylik qilishi sabablari hayotiy jihatdan ishonarli asoslangan.

Uning qo'l ostidagi odamlariga munosabatini baholashda asar matniga tayanilsa, ham Malik Shohinning tabiatи ochiladi, ham Gulxaniyning tasvir mahorati ilg'ab olinadi. Kordon xazinachining kelinga beriladigan mahr miqdorini aniqlash borasidagi mulohazasi uning shaxsiga beriladigan bahoning asosi bo'lishi mumkin. Timsolning mohiyatini anglagan sari o'quvchi Kordonning himmat kamarini g'aravdek bir necha yerdan bog'lashining sababini anglab olishi osonlashadi. Kordonning Tummtoy bilan suhbatida keltirilgan maqollarning nechog'lik o'z o'rnida ekanligini, bu maqollarning suhbatdoshlar tabiatini ochishdagi ahamiyatini anglash asar badiiy qudratini anglash imkonini beradi. Turumtoy qo'llagan: „Yomon otga yol bitsa, yoniga to'siq bog'lamas, yomon yerga mol bitsa, yoniga qushni qo'ndirmas" degan maqol Boyo'g'lini xafa qilganligining sabablari to'g'risida o'ylab ko'rilsa, noo'rin ishlatalgan haq gap foyda o'rniga zarar keltirishi mumkinligi ma'lum bo'ladiki, Gulxaniy asarining ahamiyati ham ayni shu holatni hissiy yo'sinda anglatish, tuydirishdan iboratdir. Kordonning Boyqushga qarata aytgan bo'yi yetgan qizning onasi bilan gap talashishi xususidagi to'g'ri gapining nafsoniyatiga tegishi, darg'azab qilganligi tasviri Kordon shaxsini tavsiflashga asos bo'ladi. Kordonning gapidan Boyo'g'lining hamiyati zarar yegan ota sifatida achiqqlanishi esa uning shaxsiga xos jihatlarni baholash imkonini beradi. Asarda odamning vaziyatga, - suhbatdoshning farosatiga qarab o'zgarib turadigan mavjudot ekanligi Ko'rpushga umidvor qiluvchi so'zni aytgan Boyo'gii Kordonni noumid qilganligi tasvirlangan o'rnlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Buni Kordonning: „U „tokcha" dedi, biz „mo'ri" dedik, jo'nay berduk", „Quda bo'lduk, judo bolduk" degan so'zga yo'qmiz", - degan mulohazalaridan anglab yetish mumkin.

Ko'rpushning: „Farg'ona mulkida chordevor noyob ekanin arz qilib o'tib edik. Agar Movarounnahr tobeotidin xohlasang, har qancha chordevor desang beray, balki xisht devor solayin", - degan so'zlari ustida o'ylab ko'rish o'quvchilarga matn ustida atroflicha fikrlashish imkonini beradi. „Zarbulmasal"ning majoziy ma'nosi, asardagi har bir qush obrazining biror toifaga mansub jonli odamni ifodalashi, bir-birini „cho'qib" emas, balki „chaqib" olishga tayyor, tili zahar qushlar timsoli Gulxaniy tomonidan ayni odamlarga xos illatlarni aks ettirish maqsadida tasvirlanganligi anglab yetilgandagina asardan chiqariladigan badiiy va hayotiy ma'noning qimmati yuqori bo'ladi.

Gulxaniy masallari yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirish, ulardagi badiiy estetik didn't hamda ijodiy imkoniyatlarni tarbiyalashda beqiyos hissa qo'shgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jabborova M. HEAVENLY ATTRIBUTES FOUND IN FOLKLORE AND THEIR IMPORTANCE IN EVERYDAY LIFE //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 159-162.
2. Valiyevna J. M., Atoyevna O. F. SHODIQUL HAMRONING «HOVLIDAGI DARAXT» TIMSOLINIG SHAXS SIFATLARIGA EPITET BOLIB KELISHI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 44. – №. 8. – С. 57-60.
3. Jabborova, M., & Safoyeva, S. (2024). THE IMAGE OF THE SUN IN EPIC WORKS. *Solution of social problems in management and economy*, 3(4), 165-168.
4. Jabborova, M. (2023). THEORETICAL INTERPRETATION OF STUDENTS'ACADEMIC ACHIEVEMENT. *Solution of social problems in management and economy*, 2(12), 36-40.
5. Jabborova, M., & Safoyeva, S. (2024). THE IMAGE OF THE SUN IN EPIC WORKS. *Solution of social problems in management and economy*, 3(4), 165-168.
6. Valiyevna, J. M. (2024). The Artistic Perfection of Cosmic Images in the Works of Yusuf Khos Hajib and Navoi. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(4), 153-158.
7. Jabborova, M. (2024). MUMTOZ SHE'RIYATDA UCHRAYDIGAN OY, YULDUZ, QUYOSH TIMSOLLARINING SHAXS QIYOFASIDA TIMSOLLANISHI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(1), 48-52.
8. SHE'RIYATIDA, M. J. Z., & TIMSOLLARMUSHTARAKLIGI, I. I. V. K. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS.–2022. T, 2(18), 209-211.
9. Eshqulova, G., Musurmonova, M., & Axmedova, D. B. (2022). Boshlang 'ich sinf ona tili darslarida nutqiy ko 'nikmalarni rivojlantiruvchi o 'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(1A), 72-75.
10. Qizi, S. M. A., & Axmedova, D. B. (2022). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING BILIM EGALLASHGA DOIR QARASHLARINI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK ASARLARNING O 'RNI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(1A), 43-46.
11. Axmedova, D. (2021). СЕМАНТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА СИСТЕМА И МОДЕЛЬ. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
12. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гурухлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.

13. Akhmedova, D. B. (2020). SET OF SEMANTIC TAGS FOR UZBEK LANGUAGE UNITS: CONSTANTS AND OPERATOR CLASSIFIER. *Theoretical & Applied Science*, (2), 177-179.
14. Bahodirovna, D. A. (2020). SEMANTIC TAG CATEGORY IN CORPUS LINGUISTICS: EXPERIENCE AND ANALYSIS. *Scientific reports of Bukhara State University*, 4(1), 152-160.
15. Bahodirovna, A. D., & Khamidjanovna, A. F. IDEOLOGICAL AND ARTISTIC ASPECTS OF SAHBO LYRICAL HERITAGE. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 235.
16. Sharipova, M., & Azimova, N. (2025). ERTAKLARNING JANRIY BELGILARI VA MOTIVLAR TIZIMI. *Modern Science and Research*, 4(4), 1149-1158.
17. Sharipova, M., & Bakhshulloyeva, S. (2025). THE PLACE OF THE WORK OF ABDULLA ARIPOV IN THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN LITERATURE. *Modern Science and Research*, 4(1), 388-395.
18. Sharipova, M. B. (2021). XALQ DOSTONLARIDA SOVCHILIK MAROSIMI BADIY IFODASI (“ALPOMISH” DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, 2(7), 1120-1124.
19. Baxshilloyevna, S. M. (2024). ARXAIK EPOSNING SUJET STRUKTURASIDA MOTIVLAR TAHLILI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(4), 343-349.
20. Шарипова, М. Б., & Нематуллоева, М. (2024, February). КОМПЛЕКСНАЯ КОНЦЕПЦИЯ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ И ЕЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE "MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"*–Brno, Czech (Vol. 1, pp. 18-25).
21. Sharipova, M. (2020). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ». *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 1(1).
22. Мирханова, Г. (2024). СИНОНИМ СҮЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИ. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 3(1), 76-80.
23. Мирханова, Г. (2022). СИНОНИМ СҮЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 172-178.
24. Rustamovna, M. G. (2020). Rus tilshunosligida sinonim sozlar oquv lugatlarining tadrijiy rivojlanishi. *Oriental Art and Culture*, (III), 326-329.
25. Rustamovna, M. G. (2024). Linguistic Form of Terms in Explanatory Dictionaries of the Uzbek Language. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(6), 589-591.